

**“IRODA” LEKSEMASINING SEMANTIK TARAQQIYOTI****Ashurova Zarina A'loqul qizi**

Navoiy davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10426882>**ARTICLE INFO**

Qabul qilindi: 15-December 2023 yil

Ma'qullandi: 18- December 2023 yil

Nashr qilindi: 23- December 2023 yil

KEY WORDS

iroda, chidam, ma'naviyat, toqat, ikkiyuzlamachilik, nosamimiylik, maqol, sema, semantik xususiyatlar..

ABSTRACT

ushbu maqolada iroda umumiy ma'noli leksemalarning semantik xususiyatlari, ularning sinonimik qatori o'rganildi. "Ma'naviyat" leksik-semantik kategoriyasining "iroda" umumiy semali birliklari vositasida o'quvchilarda shaxs ma'naviy sifatlarining rivojlanishini va takomillashtirishni amalga oshiradi.

Har bir til o'zining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi, taraqqiy etadi. Ushbu taraqqiyot tilda mavjud bo'lgan so'zlarning bugungi kunga qadar bosib o'tgan tarixiy yo'lini turli omillar asosida tekshiradi. Uni o'rganish, tadqiq etish, fonetik, leksik va grammatik jihatdan chuqur yondashish hamda qardosh turkiy tillar tarixini o'rganib, tildagi so'zlarni qiyosiy tomondan solishtirish tilshunoslikdagi muhim omil sanaladi. Avvalo, leksemalarning semantik taraqqiyoti uning paradigmasini kengayishiga ba'zan esa torayishiga sabab bo'ladi. Ushbu taraqqiyotni aniqlashda shu tilning lug'atlariga tayanamiz.

Hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibi o'zbek tilining uzoq yillar mobaynida butun taraqqiyoti davomida shakllangan hodisadir. Shu sababli ham undagi mavjud so'zlarning paydo bo'lish davri va kelib chiqish manbayi ham bir xil. Xalqlar o'rtasida yuzaga keladigan siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar bu xalqlarning tillariga ham, lug'at tarkibiga ham shubhasiz o'z ta'sirini ko'rsatadi. Buning natijasida bir tilga xos bo'lgan fonetik, leksik va boshqa bir qator elementlar ikkinchi bir tilga o'tib, unga o'zlashib ketadi. Bunday o'zaro ta'sir qilish boshqa qatlamlardan ko'ra, ayniqsa tilning leksik qatlamida aniq namoyon bo'ladi. O'zbek tilshunosligida boshqa tillardan: arab, fors, turk, rus va ingliz tillarining sezilarli ta'siri natijasida leksik qatlam bilan bir qatorda o'zlashgan qatlam ham yuzaga kelgan¹.

"Iroda" leksemasini etimologik jihatidan tahlil qiladigan bo'lsak, bu so'z arab tilidan o'zlashgan bo'lib, dastlab "irodat" (un) shakliga ega bo'lib, o'zbek tiliga cho'ziq "a" unlisini "â" unlisiga almashtirib, so'z oxiridagi "t" tovushi tashlab qabul qilingan: iradat-iradâ (iroda); asli

¹ III.Рахматуллаев. Узбек тилининг этимологик луғати. Тошкент.2003.

ko'p ma'noli *rada* fe'lining "qidirmoq", "istamoq" ma'nosi bilan hosil qilingan, "biron bir ish yoki amalni bajarishga xizmat qiluvchi qat'iy xohish, intilish"² ma'nosini anglatadi.

Tilshunoslikda semantik taraqqiyot va unga bog'liq bo'lgan tushunchalarni tadqiq etgan bir qator olimlar mavjud. Misol sifatida, Ch. Pirs, Ch. Morris, F. de Sossyur kabi chet ellik tilshunos olimlarning qarashlari alohida ahamiyatga ega. O'zbek tilshunosligida bu borada ilmiy ishlarni amalga oshirgan M. Mirtojiyevning leksik ma'no va uning taraqqiyoti haqidagi ilmiy ishlari bu sohada erishilgan yutuqlardan biri sanaladi.

"Iroda" leksemasi arab tilida yaratilgan diniy asarlarda turlicha ma'nolarda qo'llanilgan. Xususan, muqaddas kitobimiz bo'lgan Qur'oni Karimda "iroda" tushunchasi ham Allohga, ham insonga nisbatan berilgan sifat bo'lib, 139 marta nomi zikr etilgan sanaladi. Oyatlarda keltirilgan, "ilohiy iroda" ning mutlaq mustaqil ekanligi, ustiga ustak bandaning irodasi, chegaralanganligi, yaxshilik ham, yomonlik ham Allohning irodasiga bog'liq ekanligi, faqat uning irodasigina mutlaqo maqsadli, mazmunli, hikmatli, odil ekanligi, bandalari uchun zulmi, yomonlik yo'qligini bildiriladi. Axloqiy mazmundagi oyatlarda inson irodasining erkin ekanligi aniqlanadi. (Oli Imron surasi 3/145). Bundan ko'rinib turibdiki, bandaning yaxshi narsalarni istashi bilan bir qatorda, yomon istaklarning ham mavjudligi o'z tasdig'ini topgan. (An-Anfol, Yusuf surasi, Al-Haj surasi). Har bir inson Allohning cheksiz irodasi bilan u izn bergan miqdorda irodaviy sifatlarga ega bo'ladi. Banda butun irodasini "Allohni istash", "Alloh rizosiga erishish" shaklida tayin etmog'i lozim. Imom al-Buxoriyning yozgan hadislarida, "Kitob ut-tavhid"ning 31-bobida iroda va unga bog'liq bo'lgan fikrlar keltirilgan. Imom G'azzoliy, Fahriddin ar-Roziy, Ibn Haldun, Imom Moturidiy va Farobiyning bir qator din va falsafa oid asarlarida "iroda" tushunchasi keng yoritilgan. Is'hoq Husayning "Kitob un-nafs" asarida olim irodani nafs tushunchasi bilan bog'laydi. Is'hoq Husayniy o'z asarida Aristotelning "iroda" tushunchasi bilan bog'liq quyidagi fikrlarini ham keltirib o'tadi: "Nafsning harakatga keltiruvchi kuchi orzudir, orzu esa insonni harakat qilishga undaydigan istak, g'azab va irodani o'z ichiga qamrab oladi". Shunday ekan, Aristotel nazariyasiga ko'ra, iroda aqlning munosib ko'rgan maqsadlarni istashdan iborat. Imom G'azzoliy iroda ham biologik, ham psixologik hamda falsafiy ma'nolarda ega tushuncha ekanligini ta'kidlaydi. Inson ruhining hozirgi va kelajakdagi bir maqsadiga munosib bo'lgan istak sari harakat qilishi iroda deyiladi. Diniy kitoblarda "iroda" leksemasi "irodat", "iroda qilingan", "Allohning irodasi", "bandaning irodasi", "ilohiy iroda", "ruhiy iroda" kabi istilohlar bilan keltirib o'tilgan. Abu Mutining "Fiqhi absat" asarida Alloh o'zining zotidan tashqarida bo'lgan bir necha azaliy sifatlarga ega. Alloh amri uning "iroda" sifati bilan, kuchi "qudrat" sifati bilan, olimligi "ilm" sifati bilan va malikligi "mulk" sifati bilan belgilanadi. Ibn Sino dunyoning yaratilish asosini "ilohiy iroda" deb ataydi. Yaratganning xohish-irodasi bilan bu dunyo yaratilgandir. "Qalb askarlarining hammasi uch xil sinfga bo'linadi. Birinchisi-chorlovchi va tezlovchi ya'ni shahvatga o'xshash xohishga muvofiq keladigan foydalarni jalb qiladigan yoki g'azabga o'xshash qarshi chiquvchi zararlarni daf etadigan sinfdir. Goho bu chorlovchi narsa iroda deb yuritiladi".

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, "iroda" leksemasi butun borliq va insoniyatning ma'naviy dunyosini qamrab olgan keng tushuncha sanaladi. Davrlar o'tgan sari bu istilohning turlicha semantik ko'rinishlari paydo bo'lgan bo'lsa ham "iroda" leksemasi inson va butun

² III. Рахматуллаев. Узбек тилининг этимологик луғати. Тошкент. 2003. Б-173

jamiyat uchun, uning ma'naviy dunyosi uchun ahamiyatli so'z hisoblanadi. O'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish va ularda irodaviy sifatlarni yuzaga keltirish, ularning kelajakda yetuk inson bo'lib yetishishlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Imom G'azzoliyning "Ilyou ulumid-din" Toshkent-2006
2. Imom G'azzoliyning "Qiyomat va Oxirat" Toshkent-2004
3. Sh. Sirojiddinov "Islom falsafasiga kirish: Kalom ilmi"
Toshkent-2009
4. Imom Moturidiy "Kitob ut-tavhid"
5. Sh. Rahmatullayev "O'zbek tilining etimologik lug'ati" 2-jild
Toshkent-2003



INNOVATIVE
ACADEMY